

ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **33027,3 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **26618,8 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **80,6 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **21,4 %** ni tashkil etdi.

Andijon viloyat bo'yicha **2019** yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **33027,3** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* **114,7 %** ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarining eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan **115,4 %** oshgan, jami sanoatdagi ulushi **97,7** foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilga nisbatan **98,7 %** ni tashkil etdi, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,6** foizni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan **93,8 %** ni, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,5** foizni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari o'tgan yilga nisbatan **158,2 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,2** foizni tashkil etdi.

* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

**Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash.
Ishlab chiqarish hajmi
183,8 mlrd so'm**



**Ishlab chiqaradigon
sanoat. Ishlab
chiqarish hajmi
32269,9 mlrd so'm**



**Elektr, gaz, bug bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash. Ishlab
chiqarish hajmi
493,7 mlrd so'm**



**Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish.
Ishlab chiqarish hajmi
79,8 mlrd so'm**

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.




***Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **183,8** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,6 %** ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoat
(qayta ishlash sanoati).***

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **32269,9** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,7 %** ni tashkil etdi.





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **493,7** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,5 %** ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **79,8** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %** ni tashkil etdi.



Viloyatda yanvar-dekabr oylarida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarilishi


Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)	dona	212001	178234
Paxtadan yigirilgan ip	tonna	24738,6	21491,1
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar suv va suvsiz muhitda	tonna	2597,6	2144,4
Tabiiy gaz	mln. kub. metr	48,4	37,0
O'simlik yog'i	tonna	12851,5	10883,9

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Neft	ming tonna	64,0	69,3
Bugdoy uni	tonna	136273,0	125024,0
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj fudbolkalar, maykalar, boshqa kiyiladigon kiyimlar va ish kiyimlari	ming dona	2485	1603
Alyuminiydan elektr o'ralgan sim, po'lat arqonlar, past kuchlanishdagi kabel, to'kilgan shnurlarva shu kabi buyumlar	tonna	15454,6	11736,9
Aroq – (spirt 100%)	ming litr	829,8	1824,5


Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi ulushi, %

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani 62,9 % ulushini, Andijon shahri 15,0 %, Honobod shahri 3,6 %, Andijon tumani 2,6 %, Shahrixon tumani 2,3 %, Baliqchi tumani 1,2 %, Izboskan tumani 1,1 %, Xo'jaobod tumani 1,7 %, Oltinkol tumani 1,8 %, Qo'rgontepa tumani 1,7 %, Jalaquduq tumani 1,4 %, Marhamat tumani 1,0 %, Pahtaobod tumani 1,1 %, Bo'ston tumani 1,0 %, Buloqboshi tumani 1,0 % hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Ulug'nor (0,6 %) tumaniga to'g'ri keladi.



*2019 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida jami
sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd so`m)*



Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 33027,3 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 20829,6 mlrd so'mni, Andijon shahrida 4969,1 mlrd so'mni, Honobod shahrida 1180,6 mlrd so'mni, Andijon tumanida esa 856,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora - tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **26618,8** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan **18,7 %** ga o'sishni ta'minladi, ja'mi sanoatdagi ulushi esa **80,6 %** ga yetdi.


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 26618,8 mlrd.so'm




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol mollar ishlab chiqarish tarkibi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'linadi.

Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




*2019 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati*



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 21,4 % tashkil etmoqda.


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Baliqchi tumanida (99,4 %) va Xo'jaobod tumanida (92,9 %) va Shahrihon tumanida (94,6 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,3 %), Honobod shahri (14,3 %) kuzatildi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 64587,9 ming so'm, Honobod shahrida 28041,8 ming so'm, Andijon shahrida 11350,3 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 10663,6 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 7167 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2655 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 37,0 %) Andijon shahriga, 795 tasi (11,0 %) Asaka tumaniga va 695 tasi (9,7%) Andijon tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019 yil yanvar– dekabr holatiga)



Andijon viloyatida 2019 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami 1830 ta yangi sanoat korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ulardan 487 tasi Andijon shahri, 175 tasi Shahrixon tumani, 197 tasi Asaka tumani, 119 tasi Oltinko'l tumani, 171 tasi Andijon tumani, 87 tasi Marhamat tumani, 88 tasi Qo'rgontepa tumani, 97 tasi Xo'jaobod tumani, 73 tasi Izboskan tumani, 71 tasi Jalaquduq tumani, 58 tasi Baliqchi tumani, 57 tasi Paxtaobod tumani, 52 tasi Buloqboshi tumani, 40 tasi Bo'ston tumani, 42 tasi Xonobod tumani va 16 tasi Ulug'nor tumanlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatqichlari

Tarmoqlararo sanoat kuuperatsiysini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 6475,8 mlrd. somlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi buyicha chora– tadbirlarning amalga oshirilishi, korhonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

<i>Mahalliyashtirish</i>	2019 yil yanvar-dekabr oylarida	2018 yil yanvar-dekabr oylarida
Loyihalar soni, birlik	60	61
Korhonalalar soni, birlik	30	38
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	6475,8	4995,5
Export qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollari	82,3	11,1
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	136	18

Andijon viloyat statistika boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi.

Telefon: (+99871) 230-82-57